

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

SIYOSIY QATAG'ON QURBONI BO'LGAN YURTDOSHLARIMIZ HAYOTI VA FAOLIYATINI O'RGANISH, TARG'IB ETISH HAMDA ULARNING XOTIRASINI ABADIYLASHTIRISH BORASIDAGI ISHLARNI KENGAYTIRISH TO'G'IRISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

2. Quyidagilar Respublika komissiyasining asosiy vazifalari etib belgilansin:

qatag'on qurboni bo'lgan shaxslarning hayoti va faoliyatini o'rganish, ularni nomma-nom aniqlash, tarixiy xizmatlari haqidagi ma'lumotlarni, arxiv va muzeylar, kutubxonalar va turli fondlarda saqlanayotgan hujjatlarni to'plash va tadqiq etish, ommalashtirish uchun ishchi guruhlari faoliyatini tashkil etish;

qatag'on qurbonlarining avlodlari va yaqinlari, o'sha davr voqealariga guvoh bo'lgan insonlarning xotiralarini yozib olish, oilaviy arxiv va kutubxonalarda saqlanayotgan tarixiy manbalarni, noyob suratlarni to'plash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

qatag'on qurbonlari xotirasini davlat muzeyi, uning hududlaridagi bo'limlari hamda Jadidlar merosi davlat muzeyining mavzuga doir ma'lumotlar, ashvoviy dalil va hujjatlar, boshqa tegishli eksponatlar bilan muntazam ravishda boyitib borilishini ta'minlash;

qatag'on qurbonlari xotirasini davlat muzeyi, uning hududlaridagi bo'limlari hamda Jadidlar merosi davlat muzeyining mavzuga doir ma'lumotlar, ashvoviy dalil va hujjatlar, boshqa tegishli eksponatlar bilan muntazam ravishda boyitib borilishini ta'minlash;

qatag'on qurbonlari xotirasini davlat muzeyi, uning hududlaridagi bo'limlari hamda Jadidlar merosi davlat muzeyining mavzuga doir ma'lumotlar, ashvoviy dalil va hujjatlar, boshqa tegishli eksponatlar bilan muntazam ravishda boyitib borilishini ta'minlash;

qatag'on qurbonlari xotirasini davlat muzeyi, uning hududlaridagi bo'limlari hamda Jadidlar merosi davlat muzeyining mavzuga doir ma'lumotlar, ashvoviy dalil va hujjatlar, boshqa tegishli eksponatlar bilan muntazam ravishda boyitib borilishini ta'minlash;

qatag'on qurbonlari xotirasini davlat muzeyi, uning hududlaridagi bo'limlari hamda Jadidlar merosi davlat muzeyining mavzuga doir ma'lumotlar, ashvoviy dalil va hujjatlar, boshqa tegishli eksponatlar bilan muntazam ravishda boyitib borilishini ta'minlash;

qatag'on qurbonlari xotirasini davlat muzeyi, uning hududlaridagi bo'limlari hamda Jadidlar merosi davlat muzeyining mavzuga doir ma'lumotlar, ashvoviy dalil va hujjatlar, boshqa tegishli eksponatlar bilan muntazam ravishda boyitib borilishini ta'minlash;

qatag'on qurbonlari xotirasini davlat muzeyi, uning hududlaridagi bo'limlari hamda Jadidlar merosi davlat muzeyining mavzuga doir ma'lumotlar, ashvoviy dalil va hujjatlar, boshqa tegishli eksponatlar bilan muntazam ravishda boyitib borilishini ta'minlash;

namoyandalarning ibratli hayoti va faoliyatini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar orasida yanada keng targ'ib etish maqsadida:

"Nuroni" jamg'armasi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, "Shahidlar xotirasi" jamoat fondi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi xalqimizning mustaqillikka erishish yo'lidagi ko'p asrlik mardona kurashi, bu yo'lda siyosiy qatag'onga uchragan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyati hamda ularning xotirasiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlari, davra suhbatlari, ta'lim muassasalarida va mahallalarda uch avlod uchrashuvlarini tashkil etib borsin;

Madaniyat vazirligi davlat buyurtmasi asosida spektakllar, badiiy va hujjatli filmlar yaratсин;

Yoshlar ishlari agentligi audiovizual mahsulotlar tayyorlab, ularni internet tarmog'ida ommalashtirsin, shuningdek, foydalanuvchilar o'rtasida turli tanlov, musobaqa va aksiyalar o'tkazsin;

Fanlar akademiyasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda Fanlar akademiyasi Tarix institutining "Jadidlar.uz" elektron platformasini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish va platformani yangi elektron adabiyotlar, tarixiy manbalar, jadid matbuoti namunalari va audiovizual mahsulotlar bilan boyitish choralarini ko'rsin;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ta'lim tashkilotlarida o'tkazilgan "Mustaqillik darslari" doirasida qatag'on qurbonlari, jumladan, jadidlik harakati namoyandalarga bag'ishlangan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etsin;

Turizm qo'mitasi qatag'on qurbonlarining nomlari bilan bogliq muzey va obyektlarni sayyohlik yo'nalishlariga kiritish chora-tadbirlarini ko'rsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, "Nuroni" jamg'armasi, "Shahidlar xotirasi" jamoat fondi bilan birgalikda Respublika komissiyasining qarori asosida:

qatag'on qurbonlari va jadidlik harakati vakillari bo'lgan shaxslar tug'ilib o'sgan, yashagan xonadonlarni aniqlash va ularda esdalik lavhalarini o'rnatсин;

mahallalarda va umumta'lim maktablarida tegishli tarzda "Qatag'on qurbonlari xotirasi burchaklari"ni, stendlar va boshqa ko'rgazmali vositalarni tashkil etsin.

Mazkur bandeda belgilangan vazifalar mahalliy budjetlar mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

6. Qatag'on qurbonlari, jumladan, jadidlik harakati namoyandalarning hayoti va faoliyati, ilmiy-ijodiy merosi, shuningdek, o'sha davrdagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlar bo'yicha tadqiqotlar olib borish maqsadida:

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi mavzuga oid ilmiy tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasining tanlovlari asosida shakllantirilishi hamda ilmiy loyihalarning amalga oshirilishini ta'minlash;

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, "O'zarxiv" agentligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Madaniy meros agentligi, Fanlar akademiyasi qatag'on qurbonlari va jadidlik harakati namoyandalarning ilmiy-ijodiy faoliyatiga tegishli nodir kitoblar, qo'lyozma asarlar, tarixiy hujjatlar va boshqa materiallarni ta'mirlash hamda raqamlashtirsin;

"O'zarxiv" agentligi Davlat xavfsizlik xizmati bilan birgalikda davlat arxivlarida saqlanayotgan qatag'on qurbonlari va jadidlik harakati namoyandalarga oid muayyan arxiv hujjatlarini belgilangan tartibda maxfiylikdan chiqarish choralarini ko'rsin;

vazirlik va idoralar qatag'on qurbonlari va jadidlik harakati namoyandalarning nomlarini aniqlash borasida izlanish olib borish uchun Respublika komissiyasi tavsiyasiga asosan, tegishli idoraviy arxivlardan foydalanish imkoniyatini yaratсин;

Tashqi ishlar vazirligi qatag'on qurbonlarining hayoti va faoliyatiga doir chet ellardagi mavjud manbalarni izlab topish va o'rganishda xorijdagi ilmiy-tadqiqot markazlari, nufuzli universitet va fondlar hamda soha mutaxassislari bilan yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'yishda amaliy yordam ko'rsatсин.

7. Madaniy meros agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda shaxsiy va oilaviy arxivlarda saqlab kelinayotgan qatag'on qurbonlari faoliyatiga bevosita daxldor bo'lgan qo'lyozma, kitob, surat va buyum shaklidagi tarixiy-madaniy ashyolarning davlat muzeylari fondlariga qabul qilib olinishini tashkil etsin.

8. Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi Raqamli texnologiyalar vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va uning hududlaridagi bo'limlari fondlarini muntazam boyitib borish, ularda yangi ekspozitsiya va ko'rgazmalar tashkil etish hamda bu borada zamonaviy raqamli texnologiyalar va multimedia vositalaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yсин.

9. Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Bojxona qo'mitasi ushbu qaror bilan belgilangan vazifalarni bajarishda daxldor vazirlik, idora va tashkilotlarga har tomonlama yordam ko'rsatilishini ta'minlash.

10. Adliya vazirligi Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Oliy

sud, Ichki ishlar vazirligi, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, Fanlar akademiyasi hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bilan birgalikda ikki oy muddatda mustabid tuzum davrida siyosiy qatag'onga uchragan shaxslarni reabilitatsiya qilish tartibini nazarda tutadigan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda kiritсин.

11. Iqtisodiyot va moliya vazirligi: 2025-yildan boshlab qatag'on qurbonlari va jadidlik harakati namoyandalarga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazish, "Qatag'on qurbonlari" xotira kitoblarini, kitob va albomlar, yo'l ko'rsatkichlarini tayyorlash, shuningdek, ko'rgazmalar tashkil etish bilan bogliq xarajatlarni Davlat budjeti parametrlarini shakllantirishda inobatga olsin;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining tuzilmasini takomillashtirish, jumladan, uning tarkibida multimedia, nashriyot va matbaa bo'limlarini tashkil etish hamda muzey va uning hududiy bo'limlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritсин.

12. Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyatini o'rganish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

13. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga qatag'on qurbonlarining hayoti va faoliyati, ularning ilmiy-ijodiy merosining mohiyati va tarbiyaviy ahamiyatini targ'ib qilishga qaratilgan tadbirlarni keng yoritish, mavzuga oid teleko'rsatuv va radioeshittirishlarni muntazam efiqra uzatish hamda matbuot nashrlari va internet sahifalarida maqolalar e'lon qilib borish tavsiya etilsin.

14. Adliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilikka ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritсин.

15. Ushbu qaror ijrosini muhokama qilib borish, jiro uchun mas'ul vazirlik va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri, 2024-yil 19-iyul

Salim bin Muhammad al-Malik:

O'ZBEKISTON - BARAKALI ZAMIN, MA'NAVIYAT XAZINASI, ISLOM SIVILIZATSIYASINING BUYUK MEROSI SOHIBIDIR



Albatta, O'zbekiston - barakali zamin, ma'naviyat xazinasini, islom sivilizatsiyasining buyuk merosi sohibidir. Bugun esa biz innovator, uchinchi Renessansga poydevor qo'yayotgan, hamkorlikka ochiq, dunyoviy demokratik taraqqiyotga sodiqligini isbotlagan, zamon bilan hamnafas, o'z madaniyatini tiklayotgan yangi O'zbekistonda ko'ryapmiz.

Mamlakatimizning bugungi kunda xalqaro maydondagi faol pozitsiyasi ko'zga yaqqol tashlanmoqda. Tashkilotga kelajak, shuni alohida ta'kidlash joizki, so'nggi 20 yil ichida Toshkent, Buxoro va Xiva shaharlari Islom dunyosining madaniyati va turizm poytaxtlari deb e'lon qilingan yurtingizning buyuk tarixiga yuksak hurmat va uning islom dini hamda madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hisssasi e'tirofidir.

- ICESCO O'zbekistonning buyuk tarixini tiklash, boy tarixiy, madaniy va ma'naviy merosini dunyoga ochildir, asrab-avaylash va kelajak avlodlari uchun yetkazish borasidagi sa'y-harakatlarini qanday baholaydi va bu jarayonda tashkilot qanday yordam ko'rsatmoqda?

- O'zbekistonda islom dinining insonparvarlik tamoyillarini targ'ib qilish, ulug' muhaddislar ma'naviy merosini o'rganish, ular xotirasini abadiylashtirish, yosh avlodni buyuk ajdodlar merosiga munosib holda tarbiyalash, diniy bag'rikenglikni mustahkamlash, muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish istagida bo'lgan musulmonlar uchun keng imkoniyatlar yaratish borasida ulkan sa'y-harakatlar amalga oshirilayotganini ko'rib turibmiz. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Bahouddin Naqshband kabi ulug' ajdodlarimiz nomlari O'zbekiston va uning islom olamidagi idrok bilan uzviy bogliq. Bu ilohiyot olimlarini yetishtirgan muborak zamin bilan hamkorlikni rivojlantirish biz uchun katta sharaf.

O'zbekiston va ICESCO o'rtasidagi yaqin hamkorlik tashkilot tomonidan 2007-yilda Toshkentning Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilinganidan boshlandi. O'sha qitluga sanadan boshlab o'zaro manfaatlar, hurmat-ehtirom asosida, muqaddas dinimiz - dunyoviy va ma'rifiy

islomni mustahkamlash yo'lda samarali hamkorlik qilib kelyapmiz.

Tashkilotning barcha a'zolari Samarqand shahriding 2025-yilda "Islom dunyosi madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinishini qo'llab-quvvatlaganidan mamnunmiz. Biz bu borada O'zbekistonning turli tadbir va anjumanlari o'tkazish bo'yicha barcha tashabbuslari qo'llab-quvvatlashga tayyormiz.

- Yangi O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim rivojiga, jumladan, o'zbek xalqining ma'naviy merosini o'rganishga qaratilayotgan e'tibor haqida fikringiz ham biz uchun muhim...

- O'zbekiston rahbari, muhtaram Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi oliylarining jamiyatda ta'lim va ilm-fanning rolini oshirish, madaniyatni asrab-avaylash va yuksaltirishga qaratilgan sa'y-harakatlari va tashabbuslarini Alloh taolo barokattli qilsin.

Mamlakatda ijtimoiy taraqqiyotning muhim masalalariga har tomonlama va oqilona yondashilayotganing shohidi bo'lib turibmiz. Davlatimiz rahbari ma'naviyat - tarixiy binoning gumbazi, munosib kelajak poydevori ekanini yaxshi tushunadi. U asrlar davomida millionlab insoniy taqdirlar asosida shakllangan.

Puxta tahlil va ilmiy xolislik tufayli olimlarning sa'y-harakatlari, O'zbekiston tarixining eng muhim sahifalari qayta ochildi, ko'plab atqoli madaniyat, fan arboblari, o'zbek xalqining buyuk ajdodlari nomlari qayta tiklandi. Avvalo, Sharq Uyg'onish davrini boshlab bergan Amir Temur va Temuriylar davri o'zining munosib bahosini oldi. Temuriylar davridagi ma'rifatli Movarounnahr ruhi, ilm-fan va madaniyatning gullab-yashnashi Yevropa Uyg'onish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatdi va jahon tamadduniga xizmat qildi. Sohibqiron Amir Temur bugun nafaqat O'zbekiston xalqining, balki butun insoniyatning faxridir.

Sharqning buyuk mutafakkirlari - Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa o'zbek zaminidan yetishib chiqqan daholarning tabarruk nomlari, betakror asarlari va ishlari qayta tiklandi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni xalq ma'naviyatining munosib davomchisiga aylantirish borasidagi ustuvor vazifalar ham aniq belgilab berilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom

Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi o'zbek xalqining ulkan merosini asrab-avaylash va o'rganishga sadoqatini, ilm-fan va ta'lim rivojiga qo'shgan ulkan hissasini o'zida mujassam etgani yuksak e'tirofga sazovordir.

- Mamlakatimizda ma'naviyat sohasida olib borilayotgan siyosat borasida fikringizni bilmoqchi edik. Sizing-cha, ma'naviyatni yuksaltirish mamlakatning zamonaviy taraqqiyotiga qanchalik ta'sir ko'rsatishi mumkin?

- Tarixdan ma'lumki, madaniyat, ta'lim, tibbiyot, adabiyot, san'at va me'morchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va qurilishning jadal ravnaq topishiga turtki bo'lgan bunday sivilizatsiyaning yuksalishi, avvalambor, mintaqada tinchlik va osoyishtalikka ta'minlash orqali amalga oshirdi. Binobarin so'nggi yillarda O'zbekistonda inson faoliyatining barcha jabhasida, ayniqsa, madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami o'zgarishlar va quvafaqiyatlariga tarixiy nuqtayi nazardan marassal, ularni haqli ravishda mustaqillik Renessansi davri yutuqlari, deb aytishimiz mumkin.

O'zbekistonning ma'naviy qadriyatlarini tiklash bo'yicha tanlagan yo'li madaniyatni sohasida ham o'zining naqadar to'g'riligini tasdiqladi, bunda davlat nafaqat bosh islohotchi, balki xayrixohga aylandi. Bugun biz bu ko'mak naqadar konstruktiv bo'lganini, san'at rivojiga qanday ulkan turtki berganini ko'rib turibmiz.

Mamlakatda o'tkazilayotgan xalqaro folklor musiqa festivallari, maqom, baxshichilik, "Sharq taronalari", hunarmandlar anjumanlari va boshqa an'anaga aylanib borayotgan ko'plab tadbirlar buning yaqqol tasdiqidir.

Yaqinda Zominda bo'lib o'tgan Xalqaro maqom san'ati anjumanida ishtirok etdim. Mazkur festivalling tashkil etilishi yuksak tahsinga sazovor bo'lib, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi oliylarining madaniy qadriyatlariga bo'lgan e'tibori va yuksak munosabatini namoyon etadi.

Ma'naviyat, madaniyat va san'at inson qalbiga osonlikcha kirib boradigan qudratli vositadir. Shuning uchun ham insonlarni birlashtirib, ularni Vatan va xalq manfaatlari, ezigulik va insonparvarlik tamoyillari bilan bogliq yangi marralarga undaydigan ana shunday muqaddas tushunchalar borligini to'g'ri anglash ham juda muhim. Har bir inson ularni o'z hayotining asosiy mezonlari, o'z faoliyatida dasturlam deb bilsa, shubhasiz, bu ishning natijalari tom ma'noda ma'naviy kamolotga xizmat qiladi.

O'ZBEKISTON VA QIRG'IZISTON MARKAZIY OSIYO TARAQQIYOTI UCHUN BARQAROR ASOS BO'LIB XIZMAT QILADIGAN YANGI TARIXIY ISTIQBOLNI OCHMOQDA

Kubanichbek TAABALDIYEV, qirg'izistonlik siyosatshunos:



yanada yuqori darajasiga olib chiqish istagi amaliy va istiqbolli loyihalar bilan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Qirg'iziston va O'zbekiston o'rtasidagi do'stona munosabatlarning mustahkamlanishi ikki mamlakat xalqlarining umidlari va imkoniyatlariga to'liq mos keladi. Shuning uchun ham yaqin o'tmishda mashhur bo'lgan, ikki xalq o'rtasidagi ko'p asrlik aloqalarni mustahkamlaydigan madaniyat kunlari qayta tiklanmoqda.

Boshqa sohalar qatori ta'limda ham hamkorlik rivojlanib bormoqda. Qirg'iziston Prezidentining O'zbekistonga tashrifi arafasida Samarqand shahrida o'tkazilgan Rektorial forumi buning yorqin tasdiqidir.

Ikki tomonlama aloqalarining mustahkamlanishida davlat rahbarlarining shaxsiy munosabatlari muhim o'rol bo'layotir. Boshidanoq qo'shnilar bilan hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlashni mamlakat taraqqiyotining asosiy yo'nalishi sifatida belgilagan O'zbekiston Prezidenti Qirg'iziston Prezidentini har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu aloqalar esa tobora mustahkamlanib bormoqda. Shuningdek, bu jihatlar Qirg'iziston va O'zbekiston xalqlari farovonligining garovidir.

Lutfullo RAHMONOV, "O'sh sadosi" gazetasi bosh muharriri:



- O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi munosabatlarda jadal rivojlanish bosqichiga chiqdi. Bugungi kunda Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov va O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi tufayli mamlakatlarimiz o'rtasida ko'plab dolzarb masalalar bartaraf etilmogda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, suv, hudud, chegaralar kabi masalalar ziddiyatlarisiz o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinmogda.

Ishonamanki, bo'lib o'tgan oliy darajadagi davlat tashrifi ikki e'rtasidagi do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirishga va o'zaro manfaatli sheriklikni jadalashtirishga xizmat qiladi.

Daliya OLTUNTEPE, "Niderlandiya - O'zbekiston" do'stlik jamg'armasi raisi: - Tashrif O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi munosabatlarda burilish



davri bo'lib, ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Har ikki davlat ham samarali hamkorlik uchun asos sifatida kuchli iqtisodiy sheriklik muhimligi sari intilmoqda. Qirg'iziston va O'zbekiston iqtisodiy hamkorlikka e'tibor qaratish orqali o'sishni rag'batlantirishi va tadbirkorlar uchun yanada qulay muhit yaratishi mumkin.


Hamkorlik salohiyatini mustahkamlashning asosiy yo'nalishi transport sektoridir. Qirg'iziston va O'zbekiston o'rtasidagi transport infratuzilmasini mustahkamlash va transport aloqalarini yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Samarali transport tarmoqlari iqtisodiy o'sishda tovarlarning erkin harakatlanishini osonlashtiradi. O'zaro munosabatlarning yaxshilanishi savdo hajmini oshirish, bozorlarga kirishni yengillashtirish va mintaqaviy iqtisodiyotning kengroq integratsiyalashuviga olib keladi.

Turizm sektorida hali foydalanilmagan katta salohiyat mavjud. Qirg'iziston va O'zbekiston boy madaniy va tarixiy merosiga ega, bu ularni xalqaro sayyohlar uchun yanada jozibador qiladi. Ikki davlatning o'ziga xos diqqatga sazovor joylari bo'ylab qo'shma turistik marshrutlarni ishlab chiqish va ilgari surish sayyohlar uchun yanada jozibador takliflar yaratish imkonini beradi.

Qirg'iziston Prezidentining O'zbekistonga tashrifi bu faqatgina diplomatik voqea emas, bu ikki tomonlama hamkorlik uchun keng imkoniyatlar ochadigan darvozadir. Iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, transport-kommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilash va turizm sohasi salohiyatidan foydalanishga e'tibor qaratish orqali har ikki davlat barqaror iqtisodiy o'sish va o'zaro farovonlikka yo'l ochishi mumkin. Ushbu sohalaridagi qo'shma sa'y-harakatlar va investitsiya kiritish nafaqat Qirg'iziston va O'zbekiston iqtisodiyotiga foyda keltiradi, balki fuqarolar hayotini ham yaxshilaydi.

Bundan tashqari, turistlar boy sayohat tajribasidan bahramand bo'laladi, bu esa chuqur madaniy tushunish va global aloqalarni rivojlantirishga yordam beradi.

SU CHAN, Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti yetakchi ilmiy xodimi:



- Albatta, bo'lib o'tgan oliy darajadagi muzokaralar ikki tomonlama munosabatlarni yanada jadal va mazmunli qiladi. Qirg'iziston yetakchisining O'zbekistonga tashrifi davomida qator ikki tomonlama tadbirlar, jumladan, Hukumatlararo komissiya yig'ilishi, biznes-forum, Rektorial forumi, Avlodlar muloqoti,

shuningdek, Qirg'iziston madaniyat kunlari kabi rang-barang tadbirlar bilan birga o'tadi.

Tashrif yakunlari bo'yicha mustahkam hujjatlar to'plami qabul qilindi. Ulardan eng asosiyi O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va kengaytirish to'g'risida Qo'shma bayonot hisoblanadi. Shuningdek, Prezidentlar raisligidagi Davlatlararo kengash tuzishga kelishib olinadi.

Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Sadir Japarov ishtirokida bir qator yangi qo'shma loyihalarga start berildi. Bular O'zbekiston hududida elektr energiyasi ishlab chiqarish va Qirg'izistonga eksport qilish bo'yicha quyosh elektr stansiyalarini qurish, avtomobillar va uskunalar, tikuv-trikotaj mahsulotlari va mato ishlab chiqarish sohalaridagi yangi kooperatsiya loyihalari.

Ikki davlat rahbarlarining barcha kelishuvlari, shubhasiz, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, butun mintaqa taraqqiyoti va farovonligi uchun yangi imkoniyat va shart-sharoit yaratishga xizmat qiladi. Xitoy O'zbekiston va Qirg'izistonning Shanxay hamkorlik tashkiloti va "Markaziy Osiyo - Xitoy" formati doirasidagi hamkori sifatida bundan manfaatdor.

Adnan Muhammad AL-XITARIY, Qatarning "Petro-Q" kompaniyasi raisi maslahatchisi:

- O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi hamkorlik so'nggi paytlarda jadal rivojlanmogda. Ikki davlat rahbarlarining o'zaro faol va ishonchli muloqoti tufayli erishilgan ko'p qirrali o'zbek - qirg'iz aloqalari izchil mustahkamlanib bormogda. Tomonlar barcha sohadagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish uchun katta sa'y-harakatlarni amalga oshirmogda, bu esa ikki davlat manfaatlariga javob beradi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan chuqur o'ylangan islohotlar va yangilanish to'g'risida davlatlar uchun katta qiziqish uyg'otishi barobarida mintaqaviy jarayonlar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmogda. O'zbekiston mintaqaviy ahamiyatga molik loyihalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

O'zaro savdo hajmini oshirish, sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash, biznes va mintaqaviy darajadagi aloqalarni rivojlantirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida qo'shma loyihalarni ilgari surish, transport-tranzit sohasidagi imkoniyatlardan foydalanish, madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirishga alohida e'tibor qaratilayotgani quvonarlidir.

"Dunyo" AA.

Aks sado

ODAMLAR BIZDAN FAOLLIK VA FIDOYILIKNI KUTMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida hududlar va tarmoqlarda iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha birinchi yarim yillik tahlili hamda yil yakuniga qadar ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi islohotlarning hozirgi bosqichida muhim ahamiyat kasb etishi bilan e'tiborga molik. Negaki, unda yutuqlarimiz alohida e'tirof qilinishidan tashqari, oldimda turgan dolzarb vazifalar ham aniq-tiniq ko'rsatib berildi. Bu esa barchadan fidoyilik talab etishi, shubhasiz.

Shu xususda parlamentimiz vakillari quyidagicha fikr bildirdi.

Tolibjon MADUMAROV, Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari, Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashuvchi komissiya raisi:

– Prezidentimiz alohida keltirib o'tganidek, birinchi yarim yillikda yalpi ichki mahsulot 6,4 foizga ko'paygani diqqatga sazovor. Yana bir muhim ko'rsatkich sifatida O'zbekistonga joriy yilning o'zida 15,5 mlrd. dollarlik xorijiy investitsiya olib kiritilgan, yil boshidan 3,5 mlrd. dollarlik 3 mingga yangi loyiha ishga tushirilgan va natijada 76 mingga yuqori daromadli doimiy ish o'rni yaratilganini keltirish mumkin.

Bejiz bu raqamlarga to'xtalmadik. Boisi, doimiy ish o'rinlari yaratilishi xalq farovonligini ta'minlashning muhim omillaridan sanaladi.

Bizda bu borada oxirgi yillarda katta tajriba to'plandi. Prezidentimiz tashabbusi bilan iqtisodiy komplekslar, mahallalarga yetib bordi hamda Sayxunobod, Uychi, Zarbdor va G'ijduvon tajribalari yo'lga qo'yildi. Bu amalda qanday samara berayotganini barcha ko'rib-bilib turibdi. Birgina misol: ushbu tajribalar

hisobiga 4 mingdan ortiq mahallalar sanoat va qishloq xo'jaligiga ixtisoslashtirildi va 1 mln. 600 ming kishining bandligi ta'minlandi.

Davlatimiz rahbari shu kabi yutuqlar barobarida, oldimda turgan dolzarb vazifalarga alohida e'tibor qaratdik, bu nafaqat mutasaddilarga, ayni chog'da biz, xalq vakillariga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

Yaratib berilayotgan shuncha shart-sharoit va imkoniyatlarga qaramasdan orqada qolayotgan sohalar mavjud. Ayrim joylarda esa davlat dasturlarining ijrosi qoniqarsiz holatda.

Bunday sharoitda bizdan mahalliy Kengashlar deputatlari bilan birgalikda budgetlar tasdiqlanishini qat'iy nazoratga olish va asosiysi, mahallalardagi odamlarning og'irini yengil qilish choralarini ko'rishimiz talab etilayotir.

Mamlakat yetakchisi ham, xalqimiz ham bizdan ana shunday faollik va fidoyilikni kutmoqda.

Zafar XUDOYBERDIYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi:

– Davlatimiz rahbari tomonidan shu yilning birinchi yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilindi hamda kelgusidagi vazifalar belgilab berildi.

Qayd etilganidek, joriy yilning birinchi yarmida yalpi ichki mahsulot 6,4 foizga ko'paygani barchamizni quvontiradi. Jahon iqtisodiyotidagi noaniqliklar, dunyo mamlakatlarining bir-biriga ishonchi barqaror bo'lmagan bir sharoitda O'zbekistondagi bunday iqtisodiy o'sishga erishilishi tanlangan iqtisodiy islohotlar yo'li naqadar to'g'ri ekanidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, keyingi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan iqtisodiy o'sishni ta'minlash, pirovardida aholining turmush darajasini yanada yaxshilashni ko'zda tutuvchi yangi-yangi modellar taklif etilmoqda va ular amaliyotda o'z samarasini berayotir.

Shu o'rinda Uychi tajribasiga alohida to'xtaladigan bo'lsak, mazkur tajriba zamirida tumandagi 56 ta mahallani "Ishsizlikdan xoli hududga aylantirish" g'oyasi yotadi. Ishsizlikka barham berish uchun

Prezidentimiz tomonidan faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlar va biznes qilish istagida bo'lgan aholi bilan manzilli ishlash tizimi taklif etildi. Pirovardida tumanda qo'shimcha 15 ming aholining bandligini ta'minlash vazifasi qo'yilgandi.

Har o'yning oxirida saylov okrugini borganimda, albatta, Uychi tajribasi natijalari bilan qiziqaman. Ma'lumotlarga ko'ra tumanda qo'shimcha 15 ming nafar aholining bandligini ta'minlash vazifasi joriy yilning birinchi yarim yilligidayoq ado etildi.

Sayxunobod, Zarbdor, G'ijduvon tajribalarining ham xuddi shunday aniq mexanizmlari yaratilganidan, ularning samarasi esa qisqa muddatlaridayoq ko'rinayotganidan kelib chiqib, ushbu to'rtta tajribaga qo'llagan holda yil yakunigacha respublika bo'yicha 2 million 416 ming aholi bandligini ta'minlash rejasini tasdiqlash to'g'risida. Bu esa Sayxunobod, Zarbdor, G'ijduvon, shuningdek, Uychi tajribasi samarasining e'tirofidir.

"Xalq so'zi".

Tadbir

Konstitutsiyaviy sud majlisi bo'lib o'tdi

Kecha Konstitutsiyaviy sud Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining 2024-yil 24-iyundagi murojaati asosida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonunning 86-moddasi birinchi qismiga rasmiy sharh berish to'g'risidagi masalaga bag'ishlangan ochiq sud majlisi bo'lib o'tdi.

Sud majlisi Konstitutsiyaviy sud raisi Mirzo-Ulug'bek Abdusalomov olib bordi.

Tadbirda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, senatorlar, Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, Adliya vazirligi mas'ullari, Konstitutsiyaviy sud huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi a'zolari va ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga kiritilgan masala yuzasidan ma'ruzachi sudya qonun normasiga sharh berish bo'yicha kelib tushgan murojaatning mohiyati, ish ko'rilishiga sabab bo'lgan asosiy holatlar xususida to'xtaldi.

Shundan so'ng Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz

vakili Konstitutsiyaviy sudga mazkur masalani kiritishga asos bo'lgan holatlar, boshqa dalil va ma'lumotlarni bayon qildi. Ko'rib chiqilayotgan masala yuzasidan Adliya vazirligi mas'ullari va Konstitutsiyaviy sud huzuridagi ilmiy-maslahat kengashi o'z vaqtida to'lab kelayotgan intizomli tadbirkorlar manfaatlariga putur yetkazmoqda. Ayniqsa, Farg'ona vodiysida xavotirli vaziyat kuzatilmoqda. Bu yerda noqonuniy bozor ulushi mamlakat bo'yicha umumiy hajmning 30,1 foizini tashkil qiladi. Mazkur holat mintaqada tamaki mahsuloti kontrabandasi va norasmiy savdosining yuqori darajada ekanidan dalolat beradi.

Sud muhokamasi yakunida Konstitutsiyaviy sud raisi majlisda bildirilgan fikr-mulohazalarni chuqurroq o'rganish va ishga oid materiallarni har tomonlama tahlil etish hamda Konstitutsiyaviy sud qarorini tayyorlash maqsadida nabyatdagi sud majlisi joriy yilning 23-iyul kuni o'tkazilishi e'lon qilindi.

Rahmatjon BOBOJONOV ("Xalq so'zi").



Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasining majlisi bo'lib o'tdi.

IJTIMOIY YORDAM VA HUQUQIY YECHIM

Unda Senatning navbatdagi yalpi majlisiga kiritilayotgan "Ijtimoiy xizmatlar va yordam ko'rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun dastlabki tarzda ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijasida ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar va yordam turlari tobora kengaytirilmoqda. Bu qonun bilan ayrim qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining zimmasiga dafn etish uchun nafaqani berish vazifasini yuklatishga hamda uning xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi vakolatlarni belgilashga, shuningdek, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar va ma'muriy sudlarga murojaat qilishda davlat bojini to'lashdan ozod etishga taalluqli o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Ayni chog'da o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan 80 yoshga to'lgan keksalarga qarab turilgan vaqt ish stajiga qo'shib hisoblanishi uchun davolash muassasasining xulosasi talab etilmasligi belgilanayotir. Shu bilan birga, "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunga o'zgalar qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun dastlabki tarzda ko'rib chiqildi. Ta'kidlanganidek, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish, davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ko'lamini va turlarini kengaytirish imkonini beradi. Qolaversa, aholiga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishda muammo va to'siqlarni bartaraf etish, inson huquqlari va manfaatlarini ishonchli tarzda huquqiy muhofazalash va huquqiy mexanizmlarni milliy qonunchiligimizda mustahkamlashda qo'l keladi.

Majlis so'nggida ko'rilgan masala bo'yicha Senat qo'mitasining tegishli qarori qabul qilindi.

Senat qo'mitalarida

PROKURORGA QANDAY VAKOLATLAR BERILMOQDA?

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasining majlisi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeksi hamda Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodekslariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun muhokama qilindi.

Tadbirda senatorlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari doimiy komissiyalari raislari, Yoshlar parlamenti hamda Senat qo'mitasi huzuridagi ekspertlar guruhi a'zolari, qonun tashabbuskorlari, mutasaddi vazirlik va idoralar, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Muhokama avvalida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sudlarda ishlarni ko'rishda prokurorning vakolatlarni ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunning mazmun-mohiyati yuzasidan ma'ruza tinglandi. Qayd etilganidek, mamlakatimizda

odil sudlovga erishish va sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan sud-huquq islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Natijada fuqarolar va tadbirkorlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlari yanada mustahkamlandi.

Yangi qonun bilan sud ishlarini yuritishda tarafdorlarning tortishuvi prinsipi, davlat manfaatlarini samarali himoya qilinishini ta'minlash borasida sudlar tomonidan fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy ishlarni ko'rishda prokuror ishtiroki, shuningdek, ishlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qabul qilingan sud hujjatlarini ustidan shikoyat qilishga taalluqli protsessual normalarni yanada oydinlashtirishga

qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Ularga ko'ra davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida prokurorga yerga oid huquqiy munosabatlar, davlat mulki, davlatga yetkazilgan zararni o'rini qoplash va davlat budgetidan undiruvlar bilan bog'liq ishlarda ishtirok etish huquqi berilayotir. Ayni chog'da davlat manfaatlarini himoyalash uchun sudga ariza bilan murojaat qilishi mumkin bo'ladi.

Ushbu huquqiy o'zgartirishlar prokuratura organlarining oid sudlovni amalga oshirishga ko'maklashish borasidagi faoliyati samaradorligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Qolaversa, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini to'la himoya qiladi hamda sudlarda ishlarni muhokama etishda qonuniylikni mustahkamlaydi.

Muhokama yakunida Senat qo'mitasining tegishli qarori qabul qilindi.

YURTIMIZDA KOSMIK SOHA TIZIMI RIVOJLANADI

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasining majlisi bo'lib o'tdi.

Unda "Kosmik fazo, shu jumladan, Oy va boshqa samoviy jismlarni tadqiq qilish hamda ularidan foydalanish bo'yicha davlatlarning faoliyati prinsiplari to'g'risidagi shartnomaga (London, Moskva va Washington, 1967-yil 27-yanvar) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi haqida"gi qonun dastlabki tarzda muhokamada o'tkazildi. Ma'lumotlarga ko'ra

2024-yilgacha shartnomaga 114 davlat qo'shilgan. Bu shartnoma kosmik fazoning huquqiy maqomi asoslariga doir 17 ta moddani o'z ichiga olgan.

Senatorlar xalqaro hujjatga mamlakatimizning qo'shiliishi O'zbekistonga kosmik fazoni tadqiq qilish va undan foydalanish, kosmosning barcha hududi va osmon jismlariga erkin kirish, shuningdek,

xalqaro kosmik loyihalar, resurs va bilimlar almashinuvida qatnashish imkoniyatlarini ochib berishini alohida ta'kidladi.

Qolaversa, O'zbekistonning mazkur shartnomaga qonun bilan qo'shilishi yurtimiz kosmik soha tizimini rivojlantirishda ayni muddadidir.

Majlis yakunida shu masala bo'yicha Senat qo'mitasining tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Qonunchilik palatasi qo'mitalarida

FAOLIYATNI TARTIBGA SOLUVCHI ALOHIDA HUJJAT YO'Q

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Innovatsion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari masalalari qo'mitasi tomonidan "Kosmik faoliyat to'g'risida"gi qonun loyihasi yuzasidan seminar o'tkazildi.

Videokonferensaloq shaklida o'tgan seminarida quyi palata deputatlari, Raqamli texnologiyalar, Mudofaa vazirligi, Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligining rahbar xodimlari hamda xorijiy ekspertlar qatnashdi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda kosmik faoliyat ilmiy va texnologik taraqqiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylandi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ko'plab sohalarini rivojlantirishda ushbu sohaning roli, ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu bois mamlakatimizda ham kosmik faoliyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotir.

Bugungi kunda kosmik faoliyat tamoyillari, davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, sohaga mas'ul organlar, ularning sohani tartibga solish bo'yicha vakolatlari va vazifalarini belgilab beruvchi alohida qonun yo'q.

Shundan kelib chiqib, ishlab chiqilgan qonun loyihasida kosmik faoliyatning bir qancha asosiy, jumladan, kosmik sohada teng huquqli va o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlik qilish, kosmik faoliyatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash va uni rag'batlantirish, kosmik texnologiyalardan foydalangan holda sohalar shaffofligi va raqamlashtirish darajasini oshirishga ko'maklashish tamoyillari aks etmoqda.

Shuningdek, mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mudofaa qobiliyati va xavfsizligini mustahkamlashga ko'maklashish hamda iqtisodiy tarmoqlarning

raqamlashtirilishini jadallashtirish kosmik faoliyatning asosiy maqsadlaridan biri etib belgilanayapti.

Seminarida qayd etilganidek, Kosmik faoliyatni amalga oshirishda odamlarning hayoti va sog'lig'iga bevosita tahdid yaratish, ommaviy qirg'in qurolini kosmik fazoga chiqarish, kosmosga joylashtirish yoki bunday qurollarni sinovdan o'tkazish, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatish uchun kosmik texnologiyalardan va (yoki) osmon jismlaridan foydalanish hamda fazoni ifloslantirish bo'yicha xalqaro normalar va standartlarni buzish qat'iy man qilinmoqda.

Kosmik obyektning uchrilishi natijasida odamlar yoki hayvonlar nobud bo'lsa, shuningdek, fuqarolar va atrof-muhitga zarar yetkazilsa, kosmik faoliyat subyektlariga yetkazilgan zarar Fuqarolik kodeksida belgilangan tartibda qoplanishi shartligi belgilanmoqda.

Tadbir ishtirokchilari tomonidan qonun loyihasidagi normalar atroficha muhokama qilinib, ularni takomillashtirish bo'yicha qator taklif va tavsiyalar berildi.

Seminar davomida bildirilgan asosli takliflar qonun loyihasini maromiga yetkazish uchun foydalanishga kelishib olindi.

TA'LIM SIFATINI KO'TARISHGA QARATILGAN TAKLIFLAR ILGARI SURILDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tomonidan Prezidentimizning "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosi Samarqand va Jizzax viloyatlari misolida nazorat-tahlil tartibida o'rganilgan edi.

K e c h a mazkur o'rganish yakunlariga bag'ishlangan qo'mitaning kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda

maktabgacha va maktab ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi hamda jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish borasida keng ko'lamli choratadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jizzax viloyatidagi o'rganishlarda ma'lum bo'lishicha, bugungi kunda maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasiga qarashli 558 ta maktab, 14 ta "Barkamol avlod" bolalar maktabi faoliyat olib bormoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida 266 ming 796 nafar o'quvchiga 23 ming 133 nafar o'qituvchi ta'lim berayotir.

Shuningdek, viloyatda 3 – 7 yoshli 102 ming 418 nafar bola maktabgacha ta'lim bilan qamrab

olingan. Yil yakuniga qadar bolalar qamrovi darajasini 78 foizga yetkazish bo'yicha tegishli choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, 2023/2024 o'quv yilida iqtidorli o'quvchilarni rag'batlantirish maqsadida oltin va kumush medallarga buyurtma shakllantirilib, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga taqdim qilingan. Ushbu buyurtmaga ko'ra 445 nafar o'quvchiga oltin, 96 nafar o'quvchiga kumush medali berilgan.

Viloyatdagi 10 ta umumiy o'rta ta'lim muassasasida ikkinchi xorijiy til o'qitish amaliyoti joriy qilingan bo'lib, mazkur maktablarda ikkinchi xorijiy tili o'qitish uchun barcha shart-sharoit yaratilgan.

Yig'ilishda Samarqand viloyatida o'rganish natijalari ham atroficha muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, viloyatda toifalar kesimida tahlil qilinganda 5 ming 654 nafar o'liy, 11 ming 263 nafar birinchi, 14 ming 375 nafar ikkinchi toifali, 20 ming 82 nafar mutaxassis hamda 9 ming

642 nafar o'rta maxsus ma'lumotli pedagog xodimlar faoliyat yuritib kelmog'ida. Maktablardagi 4 ming 897 nafar xorijiy til o'qituvchisining 678 nafari milliy, 609 nafari xalqaro darajadagi sertifikatlarga ega.

Qo'mita a'zolari tomonidan o'rganishlar jarayonida nodavlat umumta'lim tashkilotlari tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohaga davlat-xususiy sheriklikning turli shakllarini samarali joriy qilish bo'yicha ayrim kamchiliklar borligi qayd etildi. Umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'limni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarish, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash bo'yicha takliflar berildi.

Muhokamada pedagoglarni moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy muhofaza qilishni yaxshilash, ularning samarali ishlashi uchun munosib sharoitlarni yaratish bo'yicha qator takliflar ilgari surildi. Kun tartibidagi masala yuzasidan samarali parlament nazoratini yanada kuchaytirishga kelishib olindi.

Yig'ilish yakunida kun tartibidagi masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

REKLAMA

NOQONUNIY TAMAKI BOZORI SALOMATLIK VA IQTISODIYOTIMIZ UCHUN TAHDID

O'zbekistondagi noqonuniy tamaki bozori eng o'tkir muammolardan biri bo'lib turibdi. Ekspertlarning baholashiga ko'ra bunday xufiyona savdo davlatimiz budgetiga jiddiy ziyon yetkazmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda 2023-yilda noqonuniy tamaki mahsuloti aylanmasi tufayli mamlakatimizda 1 trillion so'm soliq tushumi boy berildi. Bunda joriy yil mart oyi holatiga ko'ra noqonuniy tamaki mahsulotining ulushi 15,3 foizni tashkil qildi.

Noqonuniy bozorning bunday ko'lamda mavjudligi davlat daromadini kamaytiribgina qolmay, qonuniy faoliyat olib borayotgan, soliqlarni o'z vaqtida to'lab kelayotgan intizomli tadbirkorlar manfaatlariga putur yetkazmoqda. Ayniqsa, Farg'ona vodiysida xavotirli vaziyat kuzatilmoqda. Bu yerda noqonuniy bozor ulushi mamlakat bo'yicha umumiy hajmning 30,1 foizini tashkil qiladi. Mazkur holat mintaqada tamaki mahsuloti kontrabandasi va norasmiy savdosining yuqori darajada ekanidan dalolat beradi.

2024-yil aprel oyi ma'lumotlariga ko'ra kontrabanda savdosi bo'yicha Namangan viloyati ketma-ket bir necha yillik yetakchiligi saqlab qolgan (47,8 foiz). Undan keyin Farg'ona (35,4 foiz) va Qo'qon (31,9 foiz) joy olgan. Andijon 19,1 foiz ko'rsatkich bilan no'yxatni yakunlaydi.

Nega O'zbekistonda noqonuniy tamaki bozori hali ham burchalik yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etmoqda? Buning asosiy sabablaridan ba'zilarini keltirib o'tamiz:

- kontrabandaga qarshi kurashishga mas'ul turli davlat idoralari o'rtasidagi samarali muvofiqlashtiruvning mavjud emasligi;
- ayrim mintaqalarda, ayniqsa, Farg'ona vodiysida noqonuniy savdoga nisbatan yuqori chidamlilik kuzatiladi, bu huquqni muhofaza qilish organlari ishini qiyinlashtiradi;
- noqonuniy tamaki iste'molchilarni o'zining pastroq narxi bilan jalb qiladi, bu soliq va aksiz yo'qligi tufaylidir.

Noqonuniy tamaki mahsuloti aylanmasining ko'lamini qisqartirish

uchun ushbu muammo bo'yicha barcha vazirlik va idoralarning kompleks, bahamijahat yondashuvi talab etiladi. Chegarada nazoratni kuchaytirish va kontrabandaga qarshi kurash bo'yicha yanada jiddiyroq choralar, jumladan, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va bojxona xodimlarining malakasini oshirish lozim.

Aholining kontrabanda mahsuloti zarari hamda noqonuniy savdoning salbiy oqibatlari to'g'risidagi xabardorligini oshirish muhim. Shuningdek, qonuniy va noqonuniy mahsulotlar narxlaridagi farqni kamaytirish uchun qonunchilikka tamaki mahsuloti kontrabandasi va noqonuniy savdosi uchun jazoni qat'iyalashtiruvchi o'zgartirishlar kiritish, aksiz siyosatini qayta ko'rib

chiqish talab etiladi. Kontrabanda tovarlar yetkazib berish kanallari to'g'risida axborot almashish bo'yicha qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlikni faollashtirish ham nihoyatda muhim.

O'zbekistonda noqonuniy tamaki bozori muammosi kompleks yondashuv va qat'iy harakatlarni talab qiladi. Faqat nazoratni kuchaytirish, harakatlarni muvofiqlashtirish, huquqiy madaniyatni oshirish va qonunchilikni takomillashtirish yo'li bilan noqonuniy tamaki mahsuloti aylanmasini sezilarli darajada qisqartirish hamda budgetga soliqlar tushumini ko'paytirish mumkin.

Erkin KAZIMOV, "Tamakisoz" tamaki tarmog'ini korxonalari uyushmasi raisi.

